


## XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI

### Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'mnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



**Faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni**

(tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha  
2023-yil 1-oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)

**16 757**

Mas’uliyati cheklangan  
jamiyat

**3 904**

Oilaviy korxona

**8 262**

Xususiy korxona

**37**


Aksiyadorlik jamiyati

**510**


Boshqa korxonalar

**Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**


(ijtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1-oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)



**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni**  
(ijtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-sentabr oylarida)




**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni**  
(yanvar-sentabr oylarida, birlikda)





**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar**  
(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan  
yilning shu davriga nisbatan **76,4** foizni tashkil etdi




■ Kichik tadbirdorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chovachilik,  
ovchilik va bu sohalarda  
xizmat ko'rsatish

■ O'rmon xo'jaligi


■ Baliqchilik xo'jaligi




## Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



*Jami faoliyat  
ko'rsatayotgan sanoat  
korxona va tashkilotlarning  
umumiyl soni o'tgan yilning  
shu davriga nisbatan **73,4**  
foizni tashkil etdi*




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 3995 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 73,4 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishslash) sanoatida 72,2 % ni (jami sanoatdag'i ulushi 91,1 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 66,7 % ni (jami sanoatdag'i ulushi 1,2 %) tashkil etib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 103,1 % ni (jami sanoatdag'i ulushi 0,8 %) va tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 90,3 % ni (jami sanoatdag'i ulushi 6,9 %) tashkil etdi.

**Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan  
korxona va tashkilotlar soni  
(2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)**



**Kichik tadbirkorlik subyektlari soni**




**Mikrofirmalar**

**Kichik korxonalar**

Kategoriya	2022- y.	2023- y.
Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni	330	275

**Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan  
korxona va tashkilotlar soni, yillar kesimida**





Mamlakatimizda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 61,8 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 29,1 foizga kamaygan;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 17,2 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 28,9 foizga oshgan;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 21,0 foiz ulushni va 27,0 foizga kamaygan.

## **Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)**




## **Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, yillar kesimida (2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)**

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 10 574 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi. Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 70,9 foiz ulushni tashkil etdi, 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 86,6 foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 21,2 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 96,8 foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 7,9 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 88,0 foizni tashkil etdi.



- Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash
- Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo
- Avtomobil va mototsikllarning ularni ta'mirlash

## *Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy ta'rifi*

**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**  
(2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

**772**



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

**19**



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

**15**




**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**


(1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




*Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **96,9** foizni tashkil etdi*




*Kichik tadbirkorlik subyektlari soni*



*Mikrofirmalar*



*Kichik korxonalar*




## *Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy iqtisodiy holati*


**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**  
**(2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)**




*Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 84,7 foizni tashkil etdi*




### *Kichik tadbirdorlik subyektlari soni*



### *Mikrofirmalar*



### *Kichik korxonalar*



**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**  
**(2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)**



**177**  
**yashash bo'yicha xizmatlar**




**1 487**  
**oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar**

2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2019- yilning mos davriga nisbatan 148,8 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:


-mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'naliشining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 10,6 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'naliشining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 89,4 foiz ulushin tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari soni  
(2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni**  
(ijtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



## *Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy iqtisodiy holati*

### **Oilaviy korxonalar soni**

(2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)




**Oilaviy korxona** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektiidir.

Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tib, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra 2022- yilning mos davriga nisbatan 234 taga ko‘paygan.

### **Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni**

(2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)

2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan 29 470 ta tijorat korxona va tashkilotlarining 23 021 tasi mas’uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to‘g‘ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.




**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining  
davlatlar kesimida soni**

(2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)



**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni**  
(2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra 270 tani tashkil etib, ulardan 167 tasi yoki 61,9 % faoliyat ko‘rsatmoqda.


Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 19 taga yoki 7,6 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

2023- yilning yanvar- sentabr oylarida viloyatimizda 19 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## *Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy iqtisodiy holati*

Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxona va tashkilotlar soni  
(2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

■ O'sish sur'ati ■ 2023- y. ■ 2022- y.



# *Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy iqtisodiy holati*




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni  
(2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)**

	<b>Jami</b>	<b>shundan:</b>	
		<b>Qo‘shma korxona</b>	<b>Xorijiy korxona</b>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>167</b>	<b>106</b>	<b>61</b>
<b>G‘uzor</b>	<b>8</b>	<b>6</b>	<b>2</b>
<b>Dehqonobod</b>	<b>14</b>	<b>9</b>	<b>5</b>
<b>Qamashi</b>	<b>6</b>	<b>4</b>	<b>2</b>
<b>Qarshi</b>	<b>13</b>	<b>8</b>	<b>5</b>
<b>Koson</b>	<b>11</b>	<b>6</b>	<b>5</b>
<b>Kitob</b>	<b>12</b>	<b>8</b>	<b>4</b>
<b>Mirishkor</b>	<b>9</b>	<b>5</b>	<b>4</b>
<b>Muborak</b>	<b>16</b>	<b>6</b>	<b>10</b>
<b>Nishon</b>	<b>8</b>	<b>5</b>	<b>3</b>
<b>Kasbi</b>	<b>6</b>	<b>1</b>	<b>5</b>
<b>Ko‘kdala</b>	<b>3</b>	<b>1</b>	<b>2</b>
<b>Chiroqchi</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>-</b>
<b>Shahrisabz</b>	<b>3</b>	<b>1</b>	<b>2</b>
<b>Yakkabog‘</b>	<b>8</b>	<b>6</b>	<b>2</b>
<b>Qarshi sh.</b>	<b>40</b>	<b>32</b>	<b>8</b>
<b>Shahrisabz sh.</b>	<b>5</b>	<b>3</b>	<b>2</b>

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Qarshi shahrida 40 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 24,0 %), Muborak 16 ta (9,6 %), Dehqonobod 14 ta (8,4 %), Qarshi 13 ta (7,8 %), Kitob 12 ta (7,2 %), Koson 11 ta (6,6 %), Mirishkor 9 ta (5,4 %), Yakkabog‘ 8 ta (4,8 %), Nishon 8 ta (4,8 %) va G‘uzor tumanlarida 8 ta (5,4 %) tashkil etadi.

## *Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy iqtisodiy holati*

### **Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni** (2023- yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan 47 356 ta korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Qarshi shahri (18,6 %), Koson (7,9 %), Yakkabog' (7,2 %), Qarshi (7,2 %), Kitob (7,0 %), Qamashi (6,5 %), Chiroqchi (5,5 %), G'uzor (5,3 %), Shahrisabz shahri (5,2 %), Shahrisabz (4,8 %), Nishon (4,7 %), Dehqonobod (4,7 %), Kasbi (4,7 %), Mirishkor (4,2 %), Muborak (3,3 %) va Ko'kdala (3,2 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

### **Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni**

(2023- yil yanvar- sentabr oylarida, birlikda)


2023- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan 5 106 ta korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning ulushi Qarshi shahrida (15,7 %), Yakkabog' (8,2 %), Qarshi (8,0 %), Koson (8,0 %), Kitob (6,3 %), Kasbi (6,3 %), Shahrisabz (6,1 %), G'uzor (6,1 %), Nishon (5,7 %), Qamashi (5,1 %), Dehqonobod (4,6 %), Mirishkor (4,3 %), Shahrisabz shahri (4,3 %), Chiroqchi (4,2 %), Ko'kdala (4,1 %) va Muborak (3,0 %) tumanlari ulushiga tegishli.




# *Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy iqtisodiy holati*



**Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarining  
hududlar kesimidagi soni**  
(2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)



**Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning  
hududlar kesimidagi soni**  
(2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)



2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan 16 757 ta mas’uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Qarshi shahrida (22,4 %), Koson (9,7 %), Yakkabog’ (8,5 %), Qamashi (7,8 %), Qarshi (6,3 %), Kasbi (6,1 %), Mirishkor (5,9 %), Nishon (5,6 %), Chiroqchi (5,2 %), Kitob (4,1 %), Muborak (3,9 %), Shahrisabz shahri (3,9 %), G‘uzor (3,9 %), Shahrisabz (3,0 %), Ko‘kdala (2,4 %) va Dehqonobod (1,5 %) tumanlari hissalariga tegishli.

## **Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar**

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo’lgan axborot-ma’lumotnomalar tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta’minlaydi.

**Ro‘yxatga olingan korxona va tashkilotlar** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagisi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.